**Xorazm viloyatida 2018-yilda sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi.**

Mamlakatimizda 2018-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirilishi bilan bir qatorda sanoat sohasida ham Davlatimiz tomonidan mavjud korxonalar quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash, yangidan tashkil etilayotgan korxonalarga imtiyozlar yaratib berish natijasida Xorazm viloyatida 2018-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6457,2 mlrd.so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 121,5 foizni tashkil qildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi 2017-2018 yillarda (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)**




- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish
- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi ko'proq qayta ishlash sanoatiga to'g'ri kelib, uning ulushi 96,3069 foizni tashkil etdi (2017-yilnga nisbatan o'sish sur'ati 123,6 foiz). Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash ulushi 0,0007 foizni (o'sish sur'ati 146,7 foiz), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash ulushi 2,9779 foizni (o'sish sur'ati 77,0 foiz), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish ulushi 0,7145 foizni (o'sish sur'ati 108,1 foiz) tashkil qiladi.

**2018-yilda shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan foizda)**




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida o'sish darajasi yuqori bo'lgan Xazorasp tumani (2017-yilga nisbatan 141,5 foiz), Yangiariq tumani (118,9 foiz) Gurlan tumani (118,5 foiz) va Urganch shahri (114,6 foiz)ga va past o'sishga ega bo'lgan Qo'shko'pir tumani (100,3 foiz), Xiva tumani (100,0 foiz) va Yangibozor tumani (96,8 foiz)ga tashkil qildi.

**2018-yilda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi to'g'risida (mlrd.so'mda)**



**Xorazm viloyatida asosiy turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish. (natura ko'rinishida)**

| Mahsulot turlari | *2018 yil* | *2017 yil* | *O'sish sur'ati, foiz hisobida* |
|---|---|---|---|
| Gidro elektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln kVts | 136,33 | 604,2 | 22,6 |
| Issiqlik energiyasi – ming Gkal. | 181,2 | 267,1 | 67,9 |
| Engil avtomobillari - dona | 35053 | 24214 | 144,8 |
| Yuk avtomobillari – dona | 7380 | 3446 | 214,2 |
| Aroq – ming litr | 1763,0 | 2188,0 | 80,6 |
| Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming litr | 19,35 | 19,0 | 101,8 |
| Tabiiy oq va qizil desert uzum vinolari – ming litr | 1200,0 | 1200,0 | 100,0 |
| Yumshoq bug'doy va spelta uni – tonna | 139630 | 134297,9 | 104,0 |
| Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar – tonna. | 1284,3 | 1294,4 | 99,2 |
| Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni, og'irligi 600 gr. (buxanka) – tonna | 19409,5 | 17181,1 | 113,0 |
| Milliy non (yopgan non) – tonna | 7355,1 | 7495,8 | 98,1 |
| Tozalangan o'simlik yog'i – tonna | 18662 | 22743 | 82,1 |
| Xo'jalik sovuni – tonna | 7379 | 7306,7 | 101,0 |
| Paxta tolasi –tonna | 82562,1 | 90952,3 | 90,8 |
| Paxta chigiti-tonna | 10316 | 9352 | 110,3 |
| Paxta chigiti (lint)-tonna | 7267 | 8518 | 85,3 |

Viloyatda sanoat korxonalar tomonidan faoliyat turlari bo'yicha asosiy turdagi mahsulot ishlab chiqarish o'tgan yilga nisbatan Gidro elektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasida 22,6 foiz, Issiqlik energiyasi 67,9 foiz, Aroq 80,6 foiz, Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar 99,2 foiz, Milliy non (yopgan non) 98,1 foiz, Tozalangan o'simlik yog'I 82,1 foiz, Paxta tolasi 90,8 foiz, Paxta chigiti (lint) 85,3 foizga kamayganini ko'rish mumkin.

## 2018-yilda shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Xazorasp tumani 40,5 foiz, Urganch shahri 23,9 foiz, Shovot 7,0 foiz, Xonqa 5,7 foiz va Gurlan tumani 4,6 foizni va eng past bogan Yangibozor tumani 1,7 foiz, Xiva tumani 1,7 foiz hamda 1,6 foiz Xiva shahriga to'g'ri keladi.

## 2018-yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish.

| **Iqtisodiy faoliyat turlari** | ***mlrd.so'm*** | ***O'sish sur'ati, foiz hisobida*** |
|---|---|---|
| **Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi** | **6457,2** | **121,5** |
| **Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash** | **0,05** | **146,7** |
| *ulardan:* | | |
| Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat | 0,05 | 146,7 |
| **Qayta ishlash faoliyati** | **6218,7** | **123,6** |
| *undan:* | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish | 1018,5 | 100,1 |
| Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish | 225,9 | 118,3 |
| To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish | 1568,5 | 108,4 |
| Kiyim ishlab chiqarish | 59,1 | 136,9 |
| Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish | 6,6 | 82,0 |

| **Iqtisodiy faoliyat turlari** | ***mlrd.so'm*** | ***O'sish sur'ati, foiz hisobida*** |
|---|---|---|
| Yog'och va po'kak buyumlar, pohol va to'qish uchun materilallari, ishlab chiqarish | 5,8 | 147,9 |
| Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish | 18,7 | 109,1 |
| Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish | 1,1 | 126,1 |
| Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish | 0,2 | 537,3 |
| Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish | 13,4 | 134,4 |
| Asosiy farmasevtika | 7,5 | 96,7 |
| Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish | 92,6 | 373,8 |
| Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish | 259,9 | 116,1 |
| Metallurgiya sanoati | 8,6 | 79,6 |
| Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish | 160,1 | 136,0 |
| Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish | 0,3 | 275,3 |
| Elektr uskunalar ishlab chiqarish | 33,9 | 120,2 |
| Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish | 216,9 | 118,6 |
| Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish | 2349,9 | 152,6 |
| Mebel ishlab chiqarish | 23,6 | 99,4 |
| Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish | 132,2 | 96,5 |
| Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish | 15,4 | 79,2 |
| **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash** | **192,3** | **77,0** |
| **Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish** | **46,1** | **122,1** |
| **Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish** | **3904,7** | **130,4** |
| *shu jumladan:* | | |
| oziq-ovqat tovarlari | 1022,8 | 108,2 |
| nooziq-ovqat tovarlari | 2881,9 | 140,6 |

Faoliyat turlari bo’yicha mahsulot ishlab chiqarish 2018 yilda teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish 82,0 foiz, asosiy farmasevtika ishlab chiqarish 96,7 foiz, metallurgiya sanoati ishlab chiqarish 79,6 foiz, mebel ishlab chiqarish 99,4 foiz, boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish 96,5 foiz, mashina va uskunalarni ta’mirlash va o’rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish 79,2 foiz, elektr, gaz, bug’ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash 77,0 foizga o’tgan yilga nisbatan kamaygan.

**Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi**
**(jami iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)**




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushi 2017 yilda 31,6 foizdan 26,2 foizga kamayganligi, nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish e’sa 68,4 foizdan 73,8 foizga ko’payganligi kuzatildi.

**2018-yilda iste’mol tovarlari ishlab chiqarish.**
**(mlrd. so’m)**



Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo’llab-quvvatlash, kichik biznes subektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida viloyatda 3904,7 mlrd.so’mlik xalq iste’mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2017-yilga nisbatan 130,4 foizni tashkil etdi.

Xalq iste’mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 1022,8 mlrd.so’mni va 2856,3 mlrd.so’mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o’tgan 2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan mos ravishdda o’sish sur’ati 105,6 foiz va 136,8 foizni tashkil qildi. Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 64,5 foizni tashkil qildi.

**2018-yilda iste’mol tovarlari ishlab chiqarish. (foizda)**




Shahar va tamanlar kesimida o’tgan yilga nisbatan o’sish sura’tini ko’radigan bo’lsak, e’ng yuqori bo’lgan Yangiariq tumani 170,2 foiz, Xazorasp tumani 149,1 foiz, Xonqa tumani 132,5 foiz, Gurlan tumani 130,2 foiz, Xiva tumani 122,4 foiz va Bog’ot tumani 115,1 foizga o’sganini ko’rish mumkin.

Shuningdek, jami iste’mol tovarlari ishlab chiqarish ulushida 2017 yilda Xazorasp tumani 45,5 foizdan 2018 yilda 52,1 foizga oshgan bo’lsa, Urganch shahri 24,0 foizdan 19,9 foizga, Shovot tumani 3,8 foizdan 3,0 foizga va Bog’ot tumani 3,5 foizdan 3,0 foizga kamaygan.

**2018-yilda shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)**




2018 yilda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat boyicha 3547,5 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan o'sish sura'ti 119,5 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2017 yilda Xazorasp tumani 5336,6 ming so'mdan 2018 yilda 10829,3 ming so'mga, Urganch shahri 8470,4 ming so'mdan 10961,3 ming so'mga, Bog'ot tumani 1245,7 ming so'mdan 1745,5 ming so'mga oshgan.

**2018-yilda shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)**



2018 yilda aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish viloyat boyicha 2145,2 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan o'sish sura'ti 128,3 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2017 yilda Xazorasp tumani 5740,9 ming so'mdan 2018 yilda 8420,3 ming so'mga, Urganch shahri 5136,3 ming so'mdan 5514,1 ming so'mga, Shovot tumani 693,5 ming so'mdan 706,8 ming so'mga, Yangiariq tumani 481,5 ming so'mdan 806,6 ming so'mga oshgan.

**2017-2018 yillarda jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (fozda)**




Sanoat mahsulotlai ishlab chiqarish hajmida kichik biznesning ulush 2018 yilda 37,1 foizni tashkil qildi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha e'ng yuqori bo'lgan Xiva shahri 100,0 foiz bolib, e'ng kam 6,7 foiz Xazorasp tumani hissasiga to'g'ri keldi.

**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi**
**"Sanoat statistikasi" bo'limi**
**Nashr uchun ma'sul: K.Kuryazov**
**Aloqa telefoni (0362) 224-64-99**